

## Oliy Ta'limda Fonetika Va Orfoepiyani O'Qitishning Samarali Usullari

G'. Do'stmurodov<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limda fonetika va orfoepiyani o'qitishning mavjud holati tahlil etilgan. Shuningdek, adabiy talaffuzning rivojlanishiqa to'sqinliq qiluvchi omillar tahlil etilgan. Talaffuz qiyin bo'lган tovushlarning o'qitilishiga doir metodik tavsiyalar keltirilgan. Adabiy talaffuzni rivojlantirishda mashq va topshiriqlarning muhim xususiyatlari dalillar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** fonetika, orfoepiya, dialekt, mashq, topshiriq, nutq texnikasi, artikulatsiya, diksya

Taraqqiyotning yangi bosqichi yuz berayotgan davrda insoniyat atrof-muhitga, olam hodisalariga, ilmiy farazlarga yangicha nigoh bilan qaramoqda. Bu hodisa nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ilmiy izlanishlarda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, tilshunoslik sohasida ham bir qancha yangi sohalarning – kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistikating vujudga kelishi, yanada chuqurroq o'rganilishi buning natijasidir. Tilshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lган pedagogika sogasida ham o'qitishning yangicha usullari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Biroq tilning fonetik sathini o'rganishda, o'qitishda bir qancha qiyinchiliklar, nuqsonlar ham ko'zga tashlanyapti. Ayniqsa, bu pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda, olib boriladigan mashg'ulotlar (amaliy, seminar)da talabalarning o'z fikrini og'zaki, adabiy tilda ravon bayon qilishga, orfoepik ta'limga deyarli e'tibor qaratilmasligida namoyon bo'ladi. Buning natijasida bitiruvchilar o'qituvchi sifatida o'z faoliyatini boshlaganda o'quvchilari nutqida yuz beradigan tovushlarning noto'g'ri talaffuzi, shevadan foydalangan holda dars olib borilganda ayrim tovushlarni o'rnini almashtirgan holda talaffuz qilinishiga e'tibor berishmaydi. Bu esa o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmasining to'g'ri shakllanishiga xalaqit beradi.

N.Mahmudovning ta'kidlashicha, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lган kasblar orasida o'qituvchilik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, o'qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lганlar sonidan sezilarli darajada ortiqdir [Mahmudov, 2007: 188]. Demak, o'qituvchilar boshqa soha vakillaridan ham ko'proq to'g'ri va ravon nutq so'zlashga majbur. Bu esa fonetika va orfoepiyasiz amalga ishmaydi. Orfoepiyani o'qitish bugungi kunda ona tilini o'qitish metodologiyasining eng kam rivojlangan bo'limlari qatoriga kiradi. Bu holat bir qator obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, ularsiz orfoepik madaniyatni o'qitishning samarali tizimini yaratib bo'lmaydi. Ijtimoiy-madaniy omil ushbu ketma-ketlikda yetakchi o'rinnlardan birini egallaydi. Qolaversa, maktab "Ona tili" darsliklarida ham, oliy ta'lim "Ona tili o'qitish metodikasi" darsliklarida ham fonetik mashqlarga yetarlicha o'rin ajratilmagan. Bu holat o'zbek adabiy talaffuz me'yorlarining o'quvchi va talabalar tomonidan deyarli o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar oliy darsliklarida ham uchramasligiga guvoh bo'lamiz. Natijada o'qituvchilarning aynan shu mashqlar bilan o'quvchilarda egallanishi kerak bo'lган adabiy talaffuz ko'nikmasining shakllanmasligiga olib kelmoqda. Bundan tashqari mashg'ulotlar davomida shevada dars olib borish ham adabiy talaffuzni egallahsga xalal beradi. Chunki o'zbek tili ko'p shevali tillar qatorida turadi.

Masalan, Xorazm vohasida ayrim so'zlar talaffuzida *[q]* undoshi o'rnida *[k]* nutq tovushini qo'llash ko'nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik talabaga adabiy talaffuz me'yorlarini singdirish uchun

<sup>1</sup> Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi "Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasini dots.v.b



darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo'lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o'quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o'quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o'qituvchida ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent shahri hududida omnaviy tarzda **[h]** bo'g'iz undoshi o'rnida muntazam **[x]** chuqur til orqa undoshining ishlatalishi (*xandaley, xurmat, xamma v.b.*), shuningdek, Buxoro, Samarqand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqdaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida **[o']** unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin. Bu borada Samarqand viloyati aholisi talaffuziga alohida to'xtalish mumkin. Pastdarg'om, Urgut va Nurobod tumanlarida **[i] – [e]** unlilarining aytishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo'g'on tumanida **[o'] – [u]** unlilarining ishlatalishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, talabalar, hatto o'qituvchilar ham **[o']** unlisini **[u], [u]** unlisini **[o']** o'rnida qo'llaydilar.

Mazkur nutq tovushlarini sanab o'tilgan hududlarning talabalari nutqida adabiy me'yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo'llanmalarda deyarli e'tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar, tovushlar talaffuzi jarayonida nutq a'zolarining ko'rinishi aks etgan alohida oksilografik chizma (rasm)lar ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi. Shuningdek, **[h]** bo'g'iz undoshining ko'pchilikning ham yozma, ham og'zaki nutqida noto'g'ri qo'llanilayotgani, uni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyatga tatbiq etishni taqazo etadi.

Shu o'rinda aytish joizki, H.Ne'matov boshchiligidagi yaratilgan "Ona tili" darsligida **[h]** va **[x]** undoshlarini imloda ham talaffuzda farqlash uchun berilgan o'quv materiali boshqalariga nisbatan o'quvchiga, shu qatorda keyinchalik talabaga ham ancha foydali [Ne'matov, 2000: 102]. Shu qatori A.Nosirovaning "Sahna nutqi" darsligi tovushlarning to'g'ri talaffuzida juda qimmatli manbadir [Nosirova, 2013: 41-42]. Chunki talaffuz mashqlari maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun ham, maktab o'quvchilari uchun ham, shuningdek, talabalar uchun ham birdek xizmat qilaveradi.

O'zbek tilida **[o']** unlisi so'zning turli o'rinlarida bir-biridan farqli talaffuz etilishi ma'lum, biroq uni talabalarga farqlab berish masalasi muammoligicha qolmoqda. O' unlisi talaffuzi bilan bog'liq nozik jihatlarga aksariyat ona tili darsliklarida e'tibor qaratilmasligi talabalarimizning adabiy nutq me'yorlarini to'la o'zlashtirishlariga soya tashlab turadi. Oliy ta'limning sohaga tegishli amaldagi darsliklarida mazkur masalaga qisman e'tibor qaratilgan nazariy ma'lumotlar uchraydi, ammo u amaliy jihatdan ishlanmagan [Typsunov, 1992: 19].

Tovushni talaffuz qilishni mashq qilishga qaratilgan uch xil toifa mavjud:

- aytilishi qiyin bo'lgan tovushni talaffuz qilishni mashq qilish;
- tovushning so'zlardagi talaffuzini ishlab chiqish;
- bog'lanishli nutqda tovush talaffuzini ishlab chiqish.

Nutq texnikasini egallahda umumiyligi tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo'yoqdorligi), cho'ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo'lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsiyonallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarini, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilari) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv – stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi" [Жамолхонов, 2004: 23].

Adabiy til va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan talaffuz me'yorlari millatning yuzi, madaniyatlichkeitligi belgisi sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, shu millat vakillarining o'zaro muloqotlari tushunarli va



samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Ona tili darslarida talaffuz ustida ishlanar ekan, hamma tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi ham maxsus mashqni talab etavermaydi. Har bir tilda ham talaffuz va imlosi muammoli bo‘lgan nutq tovushlari mavjud. Jumladan, o‘zbek tilida ham. Asosan, talabalar, barcha soha vakillari, eng achinarlisi, ayrim mutaxassis-o‘qituvchilar ham [x] – [h], [u] – [o‘], [i] – [e] va ayrim hududlarda [q], [ng] kabi tovushlarning aytilishi va yozilishida muntazam xatoga yo‘l qo‘yadilar. O‘.Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko‘rsatadi[Usmonova, 1976: 3].

Bugungi kunda ham ayrim unli va undoshlar talaffuzini o‘rgatishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Talaffuzdagi har xillikka sabab sheva ekanligi nazarda tutilsa, adabiy talaffuzni shakllantirishning samarali yo‘li bu – fonetik mashqlar ustida ishslash ekanligi ma’lum bo‘ladi. Talaffuzda ham, yozuvda ham eng ko‘p chalkashlik unlilardan [u], [o‘], [i], [e] hamda undoshlardan [h], [x], ayrim hududlarda esa [q], [ng] bilan bog‘liq. Uni bartaraf qilish uchun quyidagicha mashq va topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi;

### **Talaffuzi qiyin bo‘lgan undoshlar imlosi**

#### **“H” va “x” harflarining to‘g‘ri talaffuzini shakllantiruvchi mashq va topshiriqlar**

[H] – bo‘g‘iz undoshi bilan [x] – chuqur til orqa undoshi ba’zan imloda, asosan, talaffuzda almashtirilib, xato qo‘llanilmoqda. Bu borada ko‘plab metodik tavsiyalar, hatto maxsus lug‘atlar (“h”li va “x”li so‘zlar lug‘ati) yaratilgan bo‘lsa-da, bu borada hozirgacha sezilarli natija yo‘q. Buning uchun talabada og‘zaki adabiy talaffuzni shakllantiruvchi bosqichli mashqlar yaxshi samara beradi.

**MASHQ. Audioni tinglang. “H” va “x” tovushlarining to‘g‘ri talaffuzini mashq qiling.**



**1. Tovush holida** – *h – h – h // – h – h – h // – h – h – h // – h – h*

*– x – x – x // – x – x – x // – x – x – x // – x – x – x*

**2. Bo‘g‘in tarkibida** – *ho, – oh, – xoh, – hi, – hor, – moh, – ha, – ah, – hus.*

*– xo, – xo ‘, – ix, – xi, – xor, – rux, – xur, – xas, – xiy, – xa*

**3. So‘z tarkibida** – *hukm, hakam, hamisha, mustahkam, xohish, himoya, aql-hush, hushtak, hurmat, mahzun, zehn, hushyor, suhabat, muhabbat, har kim, nahotki.*

*Xo‘roz, xursand, xurrak, xontaxta, xokisor, xirillamoq, xayriya, xipchin, xiyla, xizmat, xarakter, xattot, xatti-harakat, xatar, xaridor, xavf-xatar, xayol, xona.*

**4. Tezaytish tarkibida** – *Hamma Xayriga hayron*

*Hamza hammadan xursandmi?*

*Hamma Hamzadan xursandmi?*

*Halim xurrakdan hurkib hayiqdi.*

**5. Maqol tarkibida** – *Har shaharning havosi boshqa.*

*Halol pishib chiqar,*

*Harom teshib chiqar.*

*Saxiy topsa, o‘rtada,*

*Baxil topsa, xaltada.*



## Rasmni skanerlang. Berilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor bering. O‘zingiz ham to‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qiling.

Ham (va bog‘lovchi) – xam (egik)

Hamma (barcha, jami) – xamma (bug‘doy saqlanadigan idish)

hil (bug‘) – xil (tur)

hush (es, aql) – xush (yaxshi, ajoyib)

shoh (podshoh) – shox (novda)

hol (ahvol) – xol (meng, tanadagi belgi)

Ko‘rib turganingizdek, [h] – bo‘giz undoshining talaffuz qilinishida [x] tovushidan farqli o‘laroq, o‘pkadan kelayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida til va tanglay orasidan erkin o‘tayotganligi sababli deyarli shovqinsiz hosil bo‘lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda [h] bo‘g‘iz undoshining o‘z qatlamga oid so‘zlarda uchramasligi ta’kidlanadi.

**“H” konsonanti o‘zlashgan leksikaga oid so‘zlarda qo‘llanib, o‘z leksikaga doir so‘zlarda bo‘lmaydi. Garchi u o‘zbek orfoepik me’yoriga ko‘ra artikulyatsiya qilinsa ham, jonli tilda ko‘proq chuqur til orqa tovushiga yaqinlashtirilib yuboriladi. Shuning uchun uni Buxoro va Samarqand shevalaridan boshqa shevalarda chuqur til orqa konsonantidan farqlay olmaydilar”.**

Shunga qaramay, hil-hil, eh, ho, himm, ha, huvv, hoy, oh kabi o‘zbek tiligagina xos so‘zlarda aynan bo‘g‘iz undoshi ishtiroy etayotgani, bu tovushning talaffuzi o‘zbeklar uchun begona emasligini inkor etib bo‘lmaydi.

[x] – undoshining aytishida esa tilning orqa qismi qattiq tanglayga juda yaqin bo‘lganligi sababli o‘pkadan kelayotgan havo oqimi tor oraliqdan sifilib o‘tishi natijasida qattiq titrash orqali kuchli shovqin sodir bo‘ladi.

Quyida bo‘g‘iz undoshininig talaffuzi va imlosiga doir maxsus mashq va topshiriqlarni tavsiya etamiz:

*1-mashq. Quyidagi ma‘lumotlarni o‘qing va to‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qiling.*

[h] – bo‘g‘izda hosil bo‘luvchi yagona undosh tovush bo‘lib, o‘pkadan chiqayotgan havo bo‘g‘izda to‘singga uchraydi. Unli tovushlardan farqi shovqindan iboratligidadir. Chuqur til orqa undoshi [x]dan talaffuziga ko‘ra farqlanadi:

[h] – talaffuzda til tanglayga tegmaydi, titramaydi.

[x] – talaffuzda tilning orqa qismi qattiq tanglayga tegadi va o‘pkadan kelayotgan havo bosimi til va tanglay orasidan sirg‘alib, titrab o‘tadi.

O‘qituvchi shu holatni videoproyektor orqali (uming hajmi katta bo‘lganligi sababli guruhdagi barcha talaba tasvirni yaqqol ko‘rib turadi va bu eng muhimidir) batafsil izohlab, shu asosda to‘g‘ri talaffuz qilib bera olsa, natija istalgandek bo‘ladi. So‘ng mustahkamlash uchun audiomatr berilib, “h”, “x” harflarining qoyilishi bo‘yicha quyidagicha topshiriq berilsa, ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.





## TOPSHIRIQ. Audiomatnni tinlang va tushirib qoldirilgan o‘rinlarga harflarni qo‘ying.

### Aybim nima?..

Xonadan chiqqanimda soat tungi o‘n ikki edi. Taksiga o‘tirdim. Qattiq charchaganman chog‘i, mashinaga o‘tirishim bilan ko‘zim ketibdi. Bir ma...al qarasam, svetoferning qizil chirog‘ida to‘...tab turgan ekanmiz. Shu payt bir ayol mashina oynasini chertdi. “Nima gapi bor ekan?” deb oynani tushirdim. Shunda ayolning qo‘lidagi chaqaloqqa ko‘zim tushdi.

- Akajon, qiynalib qoldim. Yordam bering, bolamning mazasi yo‘q, – dedi u. Vaziyatni to‘g‘ri tushunolmasdan (la...zalik uyquning kara...tligidan) go‘yo ayolni maza... qilgandek:
- Voy, bolangizning mazasi bo‘lmasa, shifokorga olib boring. Ko‘cha sovuq, – deb yuboribman. Birdan svetoferning yashil chirog‘i yondi–yu, mashina qo‘zg‘aldi. Ko‘chada ...avo sovuq, izg‘irin edi. Bir chaqirimcha yo‘l yurganimizdan so‘ng yo‘l chetida bir qora sharpa ko‘rindi. Haydovchi:
- Uzr, og‘ayni, shoshmayotgan bo‘lsangiz, yo‘l chetidagi ayoldan u-bu olvolsam, – deb qoldi. Ta...minimcha, qalin palto va kurtkalardan qavat-qavat qilib kiyim olgan, oyog‘ida erkaklar etigi, yoshi ham elliklarni qoralab qolgan bu ...otin kichkina stolchada saqich, pista kabilarni sotib baqqollik qilib o‘tirardi. Haydovchi undan sotib olgan narsalarni magnitofon yoniga qo‘ydi. ...ayron bo‘ldim.
- ...umori tutayotgan bo‘lsa, bemalol chekib ketavering, aka – dedim.
- Men umuman chekmayman, – yo‘ldan ko‘z uzmay javob berdi ...aydovchi.
- Unda nega sotib oldingiz?
- U bechora ayol uyidagi bolalarini boqish uchun o‘z sog‘lig‘idan kechib, tun yarmida ham ko‘chada o‘tiribdi. Uni yaxshi taniyman, ma...allamizga kirishda turadi. Yoshi katta bo‘lgani bilan bolalari ...ali yosh. Eri o‘tgan yili qazo qildi. Ya...shi odam edi, ra...matli. Svetoforda duch kelgan juvonni esa... bilmadim. Har ne bo‘lganda ham, farzand pul topish yo‘lida bunday vosita bo‘lmasligi kerak. Haydovchi ...aq edi.

Uyimga kelib issiq o‘rinda yotibman-u, sovuqda qolgan boyagi go‘dak ...ayolimdan ketmadi. Tonggacha o‘ylab chiqdim. ...ayollarim chalkashib ko‘zimga uyqu inibdi. Tush ham ko‘ribman. Tushumda o‘sha go‘dak ma’yus ko‘zlarini menga tikkancha, nuqlu savol berarmish: „Mening aybim nima?...“

Javob topolmay qiynalamani. Balki, yashab qolishing yo bo‘lmasa, „Bolalar uyida“ ota-onasiz katta bo‘lmasliging uchun shunday bo‘lishi kerak bo‘lgandir, bolajon, deyman pichirlab.

### Islomjon Qo‘chqorov

Xulosa qilib aytganda, mazkur mashq va topshiriqlar bilan ishslash bir tomondan talabalarning adabiy talaffuzini shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan lug‘at boyligini oshishiga, darsning didaktik boyishiga, shu bilan matnlarni o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кугубхонаси нашриёти, 2007. – 188. б.
2. Ne’matov H. v.b. Ona tili. 5- sinflar uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, -2000. – 102-b.



3. Adiba Nosirova Sahna nutqi “Tafakkur bo‘stoni” –Toshkent: – 2013. 41–42-b.
4. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 19-б.
5. Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. –Тошкент, 2004, 23-б.
6. Усмонова Ў. Талаффуз маданияти. –Тошкент: Фан, 1976. – 3-б.

